



“BOG’ OCHXON” HIKOYASI VA O’ZBEK XALQ DOSTONLARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI TAHLILI

Rustamova Fotima Bahodirovna

DTPI Filologiya fakultetining O‘zbek tili yo‘nalishi 403-guruh talabasi

rustamovafotima0914@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378348>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Dada Qo‘rqut” hikoyalaridan birinchi hikoyasi bo‘lgan “Bog’ ochxon” hikoyasi va o‘zbek xalq dosronlarining o‘xshash va farqli jihatlari o‘zaro qiyoslanib tahlil qilinadi. Hikoyadagi va dostonlardagi har bir ko‘rinish atroflicha tahlil qilinib, ularning o‘ziga xosliklariga ahamiyat beriladi.

Kalit so‘zlar: Boyindirxon, Dersaxon, beklik, buqa, Dada Qo‘rqut, Bo‘g’ ochxon, ota-o‘g’ il, “Alpomish”, farzandsizlik, “Rustamxon”, mardik va jasurlik.

Аннотация: В данной статье сравниваются и анализируются сходства и различия между рассказом “Богочхон,” который является первым рассказом из рассказов “Дата Коркут,” и узбекскими народными досронами. Каждая сцена в рассказе и эпосе подробно анализируется, и внимание уделяется их особенностям.

Ключевые слова: Бойиндирхан, Дерсахан, бекство, бык, Дада Коркут, Бугачхан, отец и сын, “Алпамыш,” бездетность, “Рустамхан,” мужество и храбрость.

Annotation: This article compares and analyzes the similarities and differences between the story “Bog’ochxon,” the first story of “Dada Qo‘rqut,” and the Uzbek folk dastans. Each scene in the story and epic is analyzed in detail, and attention is paid to their peculiarities.

Keywords: Boyindirxon, Dersaxon, bekship, bull, Dada Qo‘rqut, Bo‘g’ ochxon, father and son, “Alpomish,” childlessness, “Rustamxon,” courage and bravery.

Har bir xalqning o‘z o‘tmishi va uni o‘zida aks ettirgan og‘zaki ijodi bo‘ladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida biz “Alpomish” va “Rustamxon” dostonlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu dostonlarda mardlik, jasurlik va o‘z oilasiga mehr kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. Xuddi shunday, turk xalqi ham o‘ziga xos og‘zaki ijod mahsuliga ega. U “Dada Qo‘rqut” nomi bilan shuhrat qozongan hikoyalar to‘plamidir. Undan joy olgan hikoyalar soni jami 12 tani tashkil etib, har bir hikoya o‘zgacha badiiyati bilan ajralib turadi. Avvalambor, bu kitobning asosiy obrazi va kitob haqida bir ikki og‘iz so‘z yuritsak.

Ba‘zan Qorqut Ota deb ham tilga olingan bu shaxs, ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, Hazrati Muhammad alayhissalom zamonlarida Sirdaryo atrofida yashagan o‘g‘uzlarning Bayot yoxud Qayi bo‘yiga mansub Qora Xo‘ja ismli o‘ta aqlli, dono, olim va karomat sohibi bo‘lgan bir zotning farzandidir. Dada Qorqut bilan bog‘liq manbalarida u qavmlar orasida farm-tanishuv bilan hayot kechirgan, ezgulikni, insof-adolatni, yaxshi tushunchalar targ‘ibotchisi sifatida tilga olinadi.

“Dada Qorqut kitobi”ning ilk yozma namunasi Drezden Qirollik kutubxonasida saqlanayotgan nusxadir. Ushbu nusxa dastlab 1916yilda tadqiqotchi Rifdet Bilge, 1938-yilda esa O‘rxon Shaik Go‘kyoy tomonidan nashr etilgan. Ikkinchi nusxa 1950-yilda Vatikan kutubxonasida topilgan va faqat 6 hikoyadan iborat to‘liq bo‘lmagan nusxadir. Ushbu nusxa 1952-yilda Ettore Rossi tomonidan e‘lon qilingan.

“Dada Qorqut kitobi”ning eng so‘nggi mukammal nashri Doktor Muharram Ergin tomonidan amalga oshirilgan¹.

Biz ushbu maqolada bu kitobning birinchi hikoyasi bo‘lgan “Bog‘ochxon” hikoyasi va o‘zbek xalq dostonlarining o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Material va metodlar

Ushbu maqolani yozishda muhim manba sifatida 2010- yilda “Toshkent” nashriyotida bosilib chiqqan Zilola Ochilovanning tarjimasi hisoblangan “Dada Qo‘rqut hikoyalari” kitobidan va o‘zbek xalq dostonlari “Alpomish” va “Rustamxon” dostonlaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy- tahliliy metoddan foydalanildi.

Tadqiqot va natijalar

Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan hikoya ushbu “Dada Qo‘rqut hikoyalari” kitobidagi birinchi hikoya hisoblanib, undagi voqealar o‘z badiiyati bilan o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Hikoyaning boshlanishi va davom etish syujeti o‘zbek xalq dostonlari voqealar ketma-ketligi bilan bir muncha o‘xshashlikni hosil qiladi. Misol uchun hikoya boshida Boyindirxonning beklarni to‘plashi va befarzandlarni alohida chodirga kiritib ularga qora qo‘y go‘shini berishi xuddi “ALPOMISH” va “Rustamxon” dostonidagi voqeani yodga soladi:

Boyindirxon katta bir ziyofat uyushtirdi. Bir yerga oq chodir, bir yerga qizil chodir, bir yerga esa qora chodir qurdirdi. «O‘g‘il-qizi yo‘qlarni qora chodirga tushiring. Ularga qora qo‘yning go‘shidan yediring. Yemaganlari turib ketishsin!»dedi.

Dersaxon ismli bekning farzandi yo‘q edi. Boyindirxonning yoniga bordi. Dersaxonni kutib olib, qora chodirga tushirishdi. Qora qo‘yning go‘shidan olib kelishdi. «Boyindirxonning farmoni shunday edi», deyishdi. Buni eshitgan Dersaxon o‘tirgan sridan turib: «Bu mening sha‘nimga nisbatan haqorat», dedi.²

“Alpomish” dostonida esa bunday voqea quyidagicha ko‘rinishda yoritilgan:

Ana endi o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elida bir chupron to‘y bo‘ldi. Xaloyiqlarni, elatlarni to‘yga xabar qildi. Shu to‘yga barcha xaloyiqlar yig‘ildi. Biylar ham to‘yga keldi. To‘ydagi kattalar ilgariqanday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: “Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, — deb otini o‘zlari bog‘ lab, ma‘rakai majlisga kelib o‘tira berdi. Biylarning ko‘nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko‘rib, ilgari izzat ko‘rib yurgan odamlar aytdi: “Bizlar o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irotning boyi ham shoyi bo‘lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko‘nglimiznxushlar edinglar, bu daf‘a bizdan nima o‘tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?”

Bu so‘zni eshitib, o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elida paygabetdan turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: “Ey, Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O‘zing o‘lsang, molingga har merosxo‘r chiqadi og‘ziga odam kirib ketadi”

Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa bo‘ldi. Xafa bo‘lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti³

“Rustamxon” dostonida farzandsizlik tasviri birozgina farq qiladi:

¹ “Dada Qo‘rqut hikoyalari”. Toshkent-2010. 3-4-b.

² “Dada Qo‘rqut hikoyalari”. Toshkent-2010. 5- b.

³ “Alpomish”. Fan nashriyoti. Toshkent-2018. 15-b.

Zamoninda, Oqtosh viloyatinda Sultonxon degan o'tdi. Sultonxonning uch zaifi bor edi, tug'maydigan aybi bor edi. Sultonxon Oqtosh mamlakatida necha vaqt poshsholik qildi, yoshi qaytib, soqoli oqarib qoldi. O'ylab: «Endi menda farzand bo'lmasa, o'lsam, bu mulku mollar birovga qolsa, o'zim o'lgan kuni mendan hech bir nishon bo'lmay poshsholik davlatimga bo'lak kishi ega bo'lsa menga foydasi yo'q. Endigi poshsholikni nima qilayin? Amaldorlarning hammasini yig'ib olayin, ular bilan bir maslahat qilayin, poshsholik bilan yurtini o'ziga berayin; poshsholikda orttirgan mol-u mulkimni xotinlarga topshirib, tarki dunyo qilayin», deb, shu o'yni o'ylab, amaldor, jig'ador, tog'dor, sardor beklariga xabar qo'ydi. ⁴

Har uchala holat ham bir- biriga o'xshash hisoblanadi. "Rustamxon"dan farqli o'laroq, ikki holatda ham farzandi yo'q bo'lganligi bois qahramonlar izza qilinadi, xalqdan ajratib qo'yiladi. Bu izza qilinish va ajratilishni birinchi hikoyaning o'zida qora chodir va qora qo'y go'shti orqali ko'rsak, "Alpomish" dostonida esa qahramonlarga hech kim e'tibor bermaganligi va oshning betini-ketini qilib suzib olib kelinganligida ko'rishimiz mumkin. Lekin shu umumiy o'xshashlik bilan birga farqli jihatlari ham borki, ular farzandli bo'lishi voqeasidir. "Bog'ochxon" hikoyasida bu voqea quyidagicha:

Dersaxonning xotini javob berdi:

Dersaxon, tur. Barcha beklarni to'pla. Bir ziyofat ber. Och qolganlarni to'ydir. Yalang' ochlarni kiydir. Qarzdorlarni qarzidan qutqar. Kelganlardan duo ol. Ajab emas, duosi o'tkir yaxshi bir odamning duosi bilan Alloh bizga do'mboqqina bir farzand bersa.

Dersaxon xotining aytganlarini bajardi. Ochlarni to'ydirdi. Yalang'ochlarni kiydirdi. Qarzdorlarga yordam berdi. Duo qilishdi. Yaratgan ularga suqsurdek bir o'g'il berdi. O'g'lon ulg'aydi. O'n besh yoshga to'ldi.

"Alpomish" dostonida esa hikoyadan farqli ravishda quyidagicha tasvirlanadi:

Boybo'ri aytdi: "Shu yerdan Shohimardon purning ravzasi uch kunchalik yo'l kelar ekan, har kim borib tunar ekan: davlattalab davlat tilar ekan, farzandtalab farzand tilar ekan, oxirattalab imyon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazr-u niyozimizni bersak, Shohimardon purning ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab ko'rsak".

"Rustamxon" dostonida umuman boshqacha tasvirlanadi:

...Bu so'z Sultonxonga ma'qul tushdi. Bachchag'ar, poshsholikdan umidini uzgisi kelmayotir-da.

Ertasiga juma bo'ldi. Machit odamlar bilan to'ldi. Namozjumani o'qib, fotiha yuzga tortilgan vaqtda Sultonxon amaldorlarning so'zini qulog' iga olib, sallasini bo'yniga solib, boshini egib, fotiha tilab turdi. Darveshlarning fotihasini oldi. Hademay, o'rtancha xotini Huroyim homilador bo'lib qoldi.⁵

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, uchta voqeada qahramonlarning farzand ko'rishi sababi turlicha izohlangan. "Bog'ochxon" hikoyasi qahramoni Dersaxon, ochlarni to'ydirib, yalang' ochlarga kiyim berib, qarzdorlarni qarzidan qutqarib farzandli bo'lishga erishgan bo'lsa, "Alpomish" dostoni qahramonlari Boybo'ri va Boysari Shohimardon pir huzuriga borib, 40 kun uzlatga chekingani va ibodat qilganligi uchun farzanddek ulug' ne'matga sazovor

⁴ "Rustamxon" Toshkent-2007. 5-b.

⁵ "Rustamxon" Toshkent-2007. 7-b.

bo'lishdi. "Rustamxon" dostoni qahramoni Sultonxon darvishlardan duo olishi natijasida ham farzandli bo'lganligi ko'rinadi.

Bundan tashqari, hikoyada farzandga ism qo'yish va dostonda "Alpomish" ismini olishi tasviri ham ikki asarda deyarli bir xil voqealanadi:

...Dersaxonning bir buqasi va bir erkak tuyasi bor edi. Yilda ikki marta buqa va tuyani urish-tirishar edilar. Yoz kuni bukani jang maydoniga chiqardilar. Dersaxonning o'g'li uch o'rtog'i bilan maydonda o'ynashardi. Buqani qo'yib yubordilar. Uch bola qochdi. Dersaxonning o'g'li qocha olmadi.

Buqa to'g'ri bolaga qarab yugurdi. Bola mushti bilan buqani urdi. Keyin esa yo'ldan qochdi. Buqa yerga yiqildi. Bola pichog'i bilan buqaning boshini oldi.

O'g'iz beklari to'plandilar. Bolani tabrikladilar. Dada Qo'rqo't kelib:

Bu bola bir buqani o'ldirdi. Ismi Bo'g'och bo'lsin. Ismini men berdim, yoshi bilan bergan bo'lsin, - dedi.⁶

Xuddi shunday, "Alpomish" dostoni qahramoni Hakimbek Alpomish nomini olishi ushbu tasvirga o'xshab ketadi:

...Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinidan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasini olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib: "Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustami doston edi, oxi ri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tdi", — dedi.⁷

Har uchala tahlil qilinayotgan og'zaki ijod mahsullari ham mazmun va ma'no jihatdan bir-biriga o'xshash yoki farqli. Bu o'xshashlik qahramonlarning qo'rqmaslik, dovyuraklik, jasurlik va yana bir necha insoniy fazilatlarini timsolida ham yuzaga chiqsa, voqealar rivoji turli-tuman kechishi bilan o'zaro farqlanadi.

Xulosa

Har bir millat o'z og'zaki ijodida o'zlarining orzu-istaklari, xayollarining mahsulini jamlaydi desak, yanglishmaymiz. Insoniyat azaldan dovyuraklik, qo'rqmaslik va jasorat kabi tushunchalarni ulug'lab kelgan. Balki shuning uchun ikki xalq og'zaki ijod mahsuli bir-biriga syujeti va voqealar rivoji bilan o'xshashlikni kasb etgandir, ehtimol. Ushbu "Dada Qo'rqut" kitobi hikoyasi va o'zbek xalq og'zaki ijodining ikki namunasi bo'lmish "Alpomish" va "Rustamxon" dostonlarining yana ko'plab o'xshashlik va farqli jihatlarini sanab o'tishimiz mumkin, ammo qolganlarini o'quvchi ixtiyoriga topshirishni lozim deb topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Dada Qo'rqut hikoyalari". Toshkent-2010.
2. "Alpomish". Fan nashriyoti. Toshkent-2018.
3. "Rustamxon" Toshkent-2007.

⁶ "Dada Qo'rqut hikoyalari". Toshkent-2010. 6- b

⁷ "Alpomish". Fan nashriyoti. Toshkent-2018. 17-b.